

MAKTABGACHA YOSHDAGILARDA MUSTAQIL FIKRLASH XUSUSIYATLARI

Shoimova Adolat Ergashalivna

Surxandaryo viloyati Uzun tumani 14-sonli MTT

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.09.2025

Revised: 29.09.2025

Accepted: 30.09.2025

KALIT SO'ZLAR:

*mustaqil fikrlash,
metod, tarbiyachi
kompetentligi, ilmiy
dunyoqarash, psixik
jarayonlar, nutq..*

Ma'lumki, maktabgacha davr – shaxs shakllanishining o'sish, rivojlanish, o'zligini namoyon etishga intilish, o'rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan bosqichi hisoblanadi. Ayni shu jarayonda uning insoniy sifatlari va aqliy salohiyatining rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Ushbu maqola orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali ilmiy dunyoqarashini shakllantirish masalalari muhokama etiladi.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilm-fan va tabiat markazlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish qanchalik erta boshlansa, u oilada bo'ladimi, maktabgacha ta'lim muassasalarida bo'ladimi, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi, bolalarning butun hayotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ilm-fan va tabiat markazlarida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni, ayni zamonda, unda mustaqil tafakkurning ilk belgilarini shakllantirish maqsadini nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida negizida ilm-fan va tabiat markazlarida tashkil etiladigan ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning bu bilimlarni singdirilishi lozim bo'lgan ob'ektlikdan, bularning barchasini o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'zi o'zlashtirishga moyil bo'lgan subyekt darajasiga ko'tarilishi, mustaqil shaxs sifatida tan olinishi muhitida tashkil etilishi kompetentli shaxs shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Zero, bunday sharoitda shakllanayotgan shaxs o'zi, o'zligini taniydi. O'zligini

anglagan shaxs millat, yurt faxriga aylanadi. Bularning barchasi zamirida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish masalasi yotadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugun jamiyatda o'quvchi-tarbiyalanuvchining shaxsi yetakchi mavqega ko'tarildi. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari ta'limi konsepsiyasi, standarti, dastur, darslik hamda metodik qo'llanmalar insonparvarlik yo'nalishiga solindi. Ular faqat mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog'lom ma'naviyatli odam shakllantirishga xizmat qila boshladi. Milliy pedagogika ilmi ham ma'naviy barkamol avlod tarbiyalash yo'llarini tadqiq etmoqda. Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi ulkan ahamiyat kasb etishini asoslash dolzarb ilmiy muammoga aylandi. Shu ma'noda milliy pedagogikada E.G'oziev, V.Karimova, R.Sunnatova, Z.Nishonova, K.Kenjabaeva, Q.Husanboeva, N.Alavutdinova, M.Zayniddinova, Sh.Nurullaeva, M.Saidov, B.Xodjaev singari bir qator olimlarning o'quvchi tafakkuri mustaqilligi va uni rivojlantirish borasida olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonida demokratiya, ya'ni har bir bolaning erkinligi tafakkurining mustaqilligini amalda tashkil etish masalasi, ilm-fan va tabiat markazlarida har bir mashg'ulotni uyushtirishda hamkorlik pedagogikasiga asoslanish, tarbiyachi hukumronligiga chek qo'yish, har qanday masalada bolalarning fikri, xohish-istaklari bilan hisoblashish, bu qarashlarning ilmiy-nazariy asoslarini belgilash va uni amaliy tashkil etish yo'llarini ko'rsatib berish maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqillik davri pedagogik amaliyotida o'qituvchi-tarbiyachilar bolalarga tayyor bilimlarni imkon qadar ko'proq berishning yangi- yangi yo'llarini topishga intilmoqdalar. Yosh avlodda shakllanayotgan ma'naviy sifatlarning qandayligi, bolaning ko'ngil istaklari, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning milliy an'analarini hisobga olishga harakat qilinayotir. Lekin hamon bir xil fikrlaydigan, hamma masalada yagona, yaxlit xulosaga keladigan ommani tarbiyalash g'oyasi ustuvorlik qilib turibdi.

Tarbiyalanuvchi ta'lim amaliyotida subyekt darajasiga ko'tarila olganicha, o'qituvchi-tarbiyachi esa o'z hokimlik martabasidan tusha olganicha yo'q. Ta'lim tizimida, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining asosiy ish ashyosi bo'lmish dasturlar, metodik qo'llanma va tavsiyalar hamda soha metodikasi, sodda qilib aytganda, qashshoq darajada.

Aynan mustaqil fikrlash orqali inson dunyo sir-sinoatlarini o'rganishda o'zidan oldin hosil bo'lgan qarashlar, tushunchalar, farazlar, insoniyat tomonidan chiqarilgan xulosa hamda kelingan qarorlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlaydi. Mulohaza yuritib, narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, xossa-xususiyatlar, ularni bir-biri bilan bog'lab yoki ajratib turuvchi vositalarning faoliyat mexanizmlarini anglab yetadi.

Bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda yetakchilik qiladigan ilk tadbir ularning erkinligi, ya'ni ta'lim sohasini, u maktabgacha ta'lim muassasasi bo'ladimi, umumiy o'rta yoki oliy maktab bo'ladimi, barchasini uzviylashtirgan holda demokratlashtirishdir. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida mustaqil fikrning shakllanganligi va uning rivojlanishi ko'p jihatdan ularning erkinlik darajasiga bog'liq. Shakllanib kelayotgan shaxsda mustaqil fikrni shakllantirish va uni rivojlantirish uchun bolalar shaxsi va jamoasi erkinligiga erishish zarur.

NATIJALAR

Tarbiyachi-muallimlar bilishi lozim bo'lgan haqiqatlardan biri shuki, bolalik bosqichlaridagi fikrlashning mustaqilligi darajasi unga yaratilgan sharoit tufayli kuchayadi yoki susayadi. Ularning ruhiy taraqqiyoti har xil sharoit va bosqichlarda turlicha amalga oshadi. Shuning uchun bolaning rivojlanishidagi yoshi bilan bog'liq xususiyatlar, tafakkurining mustaqilligi chegarasi va darajasi har bir bolada o'ziga xos individual tarzda bo'lishi ta'lim jarayonining har bir bosqichida, maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib umumta'limning yuqori bosqichigacha har bir mashg'ulot va darsda qat'iy hisobga olinishi lozim. Bu sog'lom ma'naviyatli shaxsni shakllantirish shartlaridan biridir.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma'naviy (fan, adabiyot, san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy ma'naviy-ruhiy qadriyatlar) jihatdan ta'sir etadi. Moddiy va ma'naviy madaniyatni uning ma'naviy madaniyati ta'sirisiz, inson ongi va faoliyatidan tashqari yaratilmaydi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi. Inson biror moddiy boylik yaratarkan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasini o'z ongida tasavvur etadi, amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy ma'noda) kishilariga o'xshashlik xohishini tug'diradigan ijobiy namunaning tarbiyaviy kuchi o'quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar, ko'pincha, ota-onalariga, ma'lum bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o'qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladilar. Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishga moyillik turlicha bo'adi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar ijobiy namunaga ham, salbiy namunaga ham babaravar taqlid qilaveradi. Buning sababi ularning turmush tajribasining juda kamligi, iroda kuchining nihoyatda zaifligi, hissiyotlarining aqlidrokidan ustun turishidadir. Ularda tahlil qilish va harakatlarga tanqidiy ko'z bilan qarab baho berish xislatlari hali shakllanmagan bo'adi. Bolalar ulg'ayib borgan sari o'z tevarak-atrofidagi katta yoshdagi kishilarning hatti - harakatlariga tobora tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'adilar. Shu yoshdagi bolalar o'z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarnigina o'zlari uchun namuna deb biladilar va ularga e'tiqod qo'yadilar.

O'quvchilarda tarkib toptiriladigan ma'naviy-axloqiy sifatlarning axloqiy ong bilan hatti - harakat o'rtasida birlik bo'lishini taqozo qiladi. Buning ma'nosi shuki, haqqoniyligi o'quvchilarga kunmakun uqtirib borilgan axloqiy- ma'naviy tushunchalar ularning hatti - harakatlarida ham, ular qatnashgan jamoadagi o'zaro munosabatlarda ham qaror topmog'i lozim. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tushunchalari faqat dars jarayonidagina emas, balki kundalik turmushda ham sinovlardan o'tib shakllana boradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida shunday sharoit yaratmoq kerakki, o'quvchilar sabot-matonat, qunt, tashabbuskorlik, chidam ko'rsata oladigan, qiladigan ishlarining jamiyat va vatan uchun zarurligini qalbdan tushunadigan bo'sinlar. O'quvchilarga beriladigan bilimlar majmui, shubhasiz, juda katta tarbiyaviy kuchga egadir. O'quvchilarda chinakam ilmiy dunyoqarash asoslarini yaratishda, to'g'ri hukm yuritish qobiliyatini tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy sifatlarga tayanib ish ko'riladi.

Jamiyatda yuz berayotgan jiddiy va chuqur o'zgarishlar o'quvchilar shaxsiyatida xam aks etadi. Endi uning ehtiyojlari bilim olish bilangina cheklanmaydi. Turli axborot tizimlari, jumladan, internetning shiddat bilan rivojlanishi boshqa manbalardan ko'plab axborotlarni olish imkonini bermoqda. Bu manbalardan olinayotgan axborotlar har doim ham o'quvchi ma'naviyatiga ijobiy ta'sir qilavermaydi. Ular orasida yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazadigan, buzg'unchi va vayronkor g'oyalarni tashuvchilari ham anchagina. Shuni hisobga olinsa, o'quvchini ma'naviy jihatdan yuksaltirish eng muhim vazifalardan biriga aylanayotgani ayon bo'ladi. Bayon qilingan mana shu holatlar o'quvchining ma'naviy-ahloqiy rivojlanishiga qaratilgan dastur ishlab chiqish zaruratini tug'diradi. Mazkur dasturni

ishlab chiqish o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy jihatdan takomillashtirishni o'quv jarayonining maqsad va vositalarini o'quvchi va o'qituvchilarning ongini o'zgartirmay turib amalga oshirish mumkin emas, degan fikrga asoslanadi.

Bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat tarbiyasi barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy omillardan biri bo'lib, shaxsni har tomonlama garmonik tarbiyalashga zamin yaratadi. Biroq, insonni kamolga yetkazishda har bir shaxsга o'ziga xos munosabatda bo'lish ta'lim-tarbiyaning asosiy tamoyillari ekanligini unutmasligimiz lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini ilm-fan va tabiat markazlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali quyidagilarga erishamiz:

- birinchidan, bolalarning nutqi, taffakur tarzi yaxshi shakllanadi;
- ikkinchidan, bolalarda atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish imkoniyatlari o'rganib boriladi;
- uchinchidan, bolalarda axloqiy norma va ijtimoiy tarbiya turlari ijobiy shakllanib boradi;
- to'rtinchidan, bolalar ta'limning keyingi bosqichi – boshlang'ich ta'limga ruhan va ma'nan tayyor bo'lib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 2010.
2. Vygotskiy L.S. Bolalikda tasavvur va ijodkorlik. – M.: "Ma'rifat", 2011. -74-b.
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – T.: «Fan», 2014. –5-b.
4. Vygotskiy L.S. Fikrlash va nutq. – M.: "Pedagogika", 2012. -90-b.
5. Erkaev A. Tafakkur erkinligi. – T.: «Ma'naviyat», 2017. –37-b.
6. Karimova V.M., Sunnatova R. Mustaqil fikrlash. – T.: «Sharq», 2020.
7. Husanboeva Q. Adabiy ta'lim jarayonda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. doktori... diss. - T.: 2017. –24-b.
8. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – M.: "Pedagogika", 2011 yil.